NAMANGAN VILOYATI

TO‘RAQO‘RG‘ON TUMANI SOYI BO‘YI MASTER-REJASI

Kosonsoy soyi bo‘yida tashkil etiladigan turizm va servis obyektlari

≈ 11,9 ga	2,67 km	43 ta	28 ta
hudud	sohil bo‘yi	obyekt	lot

“AMK ECO PROJECT” MChJ



2026

Master-rejaning huquqiy asoslari

Loyiha quyidagi normativ-huquqiy hujjatlar talablari asosida ishlab chiqildi

PQ-245

2024-yil 8-iyul
Prezident qarori

“Hududlarning iqtisodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish va bo‘sh yer uchastkalaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”

Loyihada: Soy bo‘yidagi foydalanilmayotgan qirg‘oq yerlari 28 ta lot sifatida investitsiya aylanmasiga kiritiladi

VMQ-497

2024-yil 12-avgust
Vazirlar Mahkamasi qarori

“Hududning master-rejasini ishlab chiqish, kelishish va tasdiqlash tartibi to‘g‘risida”

Loyihada: Taqdimot tuzilishi — tahlil, salohiyat, tasavvur, investitsiya loyihalari, yerdan foydalanish, lot pasportlari

PF-102

2024-yil 18-iyul
Prezident farmoni

“Turizm infratuzilmasini yaxshilash va xorijiy turistlar oqimini yanada oshirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”

Loyihada: Hudud tuman markazidagi yangi turizm va dam olish nuqtasi sifatida shakllantiriladi

PQ-298

2025-yil 8-oktyabr
Prezident qarori

“Alohida tuman (shahar) va mahallalarni aholining yashashi va tadbirkorlik faoliyati uchun namunali hududga aylantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”

Loyihada: Sohil bo‘yi aholi dam olishi va kichik biznes uchun namunali jamoat makoniga aylantiriladi



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev

Xulosa: master-reja hududni davlat tomonidan obodonlashtirish (infratuzilma) va xususiy investitsiyalar (lotlar) uyg‘unligida rivojlantirishni nazarda tutadi.

Master-reja haqida

Kosonsoy soyi bo‘yida tashkil etiladigan turizm va servis obyektlari konsepsiyasi

Master-reja Kosonsoy soyining To‘raqo‘rg‘on shahridan oqib o‘tuvchi 2,67 km lik chap qirg‘og‘ini yil bo‘yi ishlaydigan turizm, dam olish va servis klasteriga aylantirishni nazarda tutadi. Hozirda obodonlashtirilmagan, tartibsiz avtoturargoh sifatida ishlatilayotgan ≈ 11,9 ga hudud 11 ta funksional zonaga ajratiladi: unda 43 ta obyekt va inshoot joylashtiriladi, 28 ta lot esa elektron auksion orqali xususiy investorlarga taklif etiladi. Jamoat hududlari — yo‘laklar, bog‘lar, ko‘priklar va muhandislik tarmoqlari davlat hisobidan quriladi.

Asosiy yo‘nalishlar

1. **Harakatlanish**
   2 673 m salomatlik yo‘lagi, velo-yo‘lak, 5 ta piyoda ko‘prigi
2. **Ovqatlanish va savdo**
   Restoranlar, milliy taomlar, kafe-terrasalar, hunarmand rastalari
3. **Oilaviy dam olish**
   Bolalar aquaparki, batut, game club, o‘yin maydonchalari
4. **Madaniy tadbirlar**
   785 m² ochiq amfiteatr, san’at xiyoboni, “Marry me” foto-zona
5. **Faol dam olish**
   Karting trassasi, zipline, skalodrom, paintbol, parkur
6. **Sport**
   Mini-futbol, gandbol, tennis — universal sport maydonlari
7. **Yashil karkas**
   Gullar bog‘i, piknik zonasi, mavjud daraxtlarni saqlash
8. **Transport**
   3 ta avtoturargoh (≈ 300 joy), elektromobil zaryadlash

≈ 11,9 ga
Loyiha hududi

11 ta
Funksional zona

43 ta
Obyekt va inshoot

28 ta
Investitsiya loti

Master-rejaning maqsadi

- Foydalanilmayotgan soy qirg‘og‘ini obod jamoat makoniga aylantirish
- Xizmatlar sohasini rivojlantirish va yangi ish o‘rinlari yaratish
- Xususiy investitsiyalarni lotlar orqali jalb qilish
- Aholi va mehmonlar uchun yil bo‘yi ishlaydigan dam olish muhitini yaratish
- Soy muhofaza zonasini saqlagan holda ekologik muvozanatni ta’minlash

Barcha binolar soy himoya zonasida joylashgani uchun 1 qavatli, yengil konstruksiyali qilib loyihalanadi.

Bosh reja — master-reja konsepsiyasi

Tasdiqlash uchun tayyorlangan planshet — to‘liq holatda



Bino va inshootlar ro‘yxati (maydoni, m²)

№	Nomlanishi	m²
1	Savdo markazi va restoran	1909,0
2	Avtoturargohlar (umumiy)	3478,0
2a	Boshqaruv va qo‘riqlash xonasi	38,0
3	Asosiy kirish arkasi	22,0
4	Ice Cream & Fresh Bar	175,0
4a	Dam olish joylari, o‘rindiqlar (6)	50,0
5	Bolalar maydonchalari	130,0
6	Favvora	58,0
7	Workout	40,0
8	Selfi-zona, soy bo‘yi terrasa	115,0
9	Bio-hojatxonalar (20)	2,2
10	Landshaft va gullar bog‘i	1298,0
10a	Gul do‘koni	32,0
11	Ko‘chma savdo do‘konlari (10)	360,0
12	Pergola va yarmarkalar (4)	48,0
13	Milliy taomlar	196,0

№	Nomlanishi	m²
14	Panoramali restoran	182,0
15	Fast food, kafe	88,0
16	Bolalar batuti	182,6
17	Tashqi ovqatlanish joylari	—
18	Yozgi ochiq amfiteatr	785,0
19	Tez tibbiy yordam, ona va bola xonasi	32,0
20	Marry me va yopiq foto-zona	540,0
21	Ko‘chma savdo — salqin ichimliklar	50,0
22	Texnik va boshqaruv binosi	50,0
23	Ochiq ko‘rgazma va san’at xiyoboni	370,0
24	Dam olish va Wi-Fi zona	160,0
25	Trampolin va Jump park	500,0
26	Interaktiv suv o‘yinlari maydoni	450,0
27	0–5 yosh suv o‘yinlari	580,0
28	Salqin ichimliklar do‘koni	76,0
28a	Game club kompleksi	250,0

№	Nomlanishi	m²
29	Texnik xona	32,0
30	Pergola dam olish joylari (7)	36,0
30a	Shaxmat o‘rindiqlari (8)	38,0
31	Climbing & Bouldering	401,0
32	Aerial Adventure & Zipline	935,0
33	Paintbol zonasi	1017,0
34	Kutish va kiyim almashtirish	32,0
35	Electric Karting & Junior Track	5380,0
36	Zaryadlash, texnik, tibbiy xona	90,0
37	Ninja Warrior va parkur	3526,0
38	Sport kompleksi	5434,0
39	Kiyim almashtirish, sanuzel (4)	38,0
40	Velosiped-samokat ijarasi	190,0
41	Boshqaruv va qo‘riqlash (2)	38,0
42	Boshqaruv va qo‘riqlash (1)	16,0
43	Piyoda ko‘prigi 2,5×55 (5)	137,5

Loyiha mualliflari

To‘raqo‘rg‘on tumanidan oqib o‘tuvchi Kosonsoy soyi bo‘yida tashkil etiladigan turizm va servis obyektlarining master-rejasini ishlab chiqishda qatnashgan mutaxassislar ro‘yxati:

Lavozimi	F.I.Sh.
Loyiha bosh arxitektori, yetakchi shaharsoz	Sh. Yunusov
Loyiha bosh muhandisi	A. Solijanov
Loyiha bosh iqtisodchisi	B. Parpiyev
Yetakchi mutaxassis	S. Boymirzayev
3D vizualizator	A. Mirzaliyev

Bosh direktor — **S. Aliyeva**



Mundarija

01.	Tahlil	11
02.	Iqtisodiy rivojlantirish salohiyati	41
03.	Rivojlantirish tasavvuri va maqsadlari	55
04.	Taklif etilayotgan investitsiya loyihalari	84
05.	Yerdan foydalanish va master-reja	114
06.	Lot pasportlarini shakllantirish	124

Loyiha hududi haqida

Kosonsoy soyi bo‘yidagi chiziqli koridor — To‘raqo‘rg‘on shaharchasi markazidan shimolga

Hudud Kosonsoy soyi o‘zani bo‘ylab cho‘zilgan tor koridordan iborat: janubiy uchi shaharcha markazi, dehqon bozori va Kosonsoy ko‘chasiga, shimoliy uchi esa avtomobil yo‘li ko‘prigiga tutashadi. Hozirda qirg‘oq bo‘yi obodonlashtirilmagan, maydonlar tartibsiz avtoturargoh sifatida ishlatiladi, soy o‘zani esa aholi dam olishi uchun foydalanilmaydi.

≈ 11,9 ga
Loyiha hududi (KMZ chegarasi)

2 673 m
Salomatlik yo‘lagi uzunligi

43 ta
Obyekt va inshoot pozitsiyasi

28 ta
Investitsiya loti — 86 838,8 m²


Mavjud holat: shimoliy qism, tekislanmagan bo‘sh hudud


Mavjud holat: janubiy qism, qirg‘oq bo‘yi yo‘li

Asosiy faktlar

- O‘rtacha eni ≈ 45 m (maydon / uzunlik), soy bo‘yi bilan yo‘l orasida
- Soyning ikki qirg‘og‘i 5 ta piyoda ko‘prigi (2,5 × 55 m) bilan bog‘lanadi
- Hududning ikki uchida avtoturargoh va nazorat punktlari joylashadi
- Barcha binolar — 1 qavatli, yengil konstruksiya (soy himoya zonasi)

Master-rejaning vazifalari

VMQ-497 talablari asosida belgilangan 6 ta vazifa

1

Hududning joriy holatini tahlil qilish

- Tuman ijtimoiy-iqtisodiy koʻrsatkichlari, demografiya va bandlik
- Hududning chegarasi, mavjud holati va muhandislik tarmoqlari
- Tashkilotlar va aholi bilan muhokama, SWOT-tahlil

2


Iqtisodiy rivojlantirish salohiyatini aniqlash

- Turizm va xizmatlar sohasidagi drayverlar
- Tashrif buyuruvchilar oqimi va xizmatlarga ehtiyoj prognozi
- Yangi ish oʻrinlari va bandlik salohiyati

3

Rivojlantirish tasavvuri va maqsadlarini belgilash

- Konsepsiya, funksional zonalash (11 ta zona)
- Daryo va soy boʻyi xalqaro tajribasi tahlili
- Hududning 3D koʻrinishlari



Master-rejaning vazifalari (davomi)

VMQ-497 talablari asosida belgilangan 6 ta vazifa

4

Investitsiya loyihalarini shakllantirish

- Yo‘l-transport tizimi, avtoturargohlar, ko‘priklar
- Zonalar bo‘yicha obyektlar, yashil karkas, yoritish, KAF
- Taxminiy TEO va moliyalashtirish manbalari

5

Yerdan foydalanish va master-reja

- Bosh reja va hudud balansi
- 28 ta lotga bo‘lish va qurilish reglamenti
- Amalga oshirish bosqichlari va Gantt jadvali

6

Lot pasportlarini tayyorlash

- Auksion navbatlari
- Har bir lot uchun: maydon, funksiya, muhandislik yuklamasi, investitsiya, ish o‘rinlari
- Sotish shartlari va yakuniy xulosa



Loyiha pasporti

Umumiy ma’lumotlar

Ko‘rsatkich	Qiymati
Loyiha nomi	Kosonsoy soyi bo‘yida turizm va servis obyektlarining master-rejasi
Joylashuvi	Namangan viloyati, To‘raqo‘rg‘on tumani, To‘raqo‘rg‘on shaharchasi
Tasdiqlovchi	Namangan viloyati hokimi
Hudud maydoni	≈ 11,9 ga (119 161 m², KMZ chegarasi bo‘yicha)
Salomatlik yo‘lagi	2 673 m
Funksional zonalar	11 ta
Obyekt va inshootlar	43 ta pozitsiya
Lotlar	28 ta — 86 838,8 m² (hududning ≈ 72,9 %)
Avtoturargoh lotlari	3 ta — 7 507,4 m² (Lot-2, 3, 28)
Qavatlilik	1 qavat, yengil konstruksiya
Piyoda ko‘priklari	5 ta, 2,5 × 55 m
Kelishuvchi idoralar	Viloyat turizm, qurilish, ekologiya, kadastr, madaniy meros, avtomobil yo‘llari boshqarmalari; tuman hokimligi



Sun’iy yo‘ldosh ko‘rinishi



Umumiy ko‘rinish (3D)



Asosiy kirish zonasi (3D)

** Hudud maydoni KMZ chegarasidan hisoblangan; rasmiy kadastr ma’lumoti bilan aniqlashtiriladi.*

01.

Tahlil

To‘raqo‘rg‘on tumanining ijtimoiy-iqtisodiy holati va loyiha hududining mavjud holati

1. Tuman haqida umumiy ma’lumot va joylashuv
2. Demografiya, bandlik va iqtisodiy ko‘rsatkichlar
3. Tarmoqlar: sanoat, xizmatlar, qishloq xo‘jaligi, investitsiya
4. Loyiha hududi: chegarasi, atrofi, mavjud holati
5. Muhokama, xulosalar va SWOT-tahlil

01.

Tahlil

To‘raqo‘rg‘on tumani — umumiy ma’lumot

To‘raqo‘rg‘on tumani Namangan viloyatining markaziy qismida, Namangan shahridan g‘arbda joylashgan. Tuman 1936-yilda tashkil topgan, markazi — To‘raqo‘rg‘on shahri. Tuman hududidan Kosonsoy soyi oqib o‘tadi va shaharcha markazini shimoldan janubga kesib o‘tadi.

Tashkil topgan sana	**17.02.1936**
Hudud maydoni	**≈ 270 km²**
Doimiy aholi (01.07.2026)	**257,5 ming kishi**
Aholi zichligi	**953,7 kishi/km²**
Shahar aholisi / qishloq aholisi	**149,9 / 107,6 ming**
Tumanga bo‘ysunuvchi shahar	**1 ta**
Shaharchalar (shahar posyolkalari)	**13 ta**
Qishloq aholi punktlari	**25 ta**
Mahallalar soni	**64 ta**

Chegaradosh hududlar

Shimolda — Kosonsoy tumani, sharqda — Namangan shahri va Davlatobod tumani, janubda — Sirdaryo va Namangan tumani, g‘arbda — Chust tumani.




To‘raqo‘rg‘on tumani chegarasi (Yandex xaritasi asosida)

Manba: Namangan viloyati statistika boshqarmasi, 2026-yil yanvar–iyun ma’lumotlari.

Tahlil

01. Transport joylashuvi va tranzit salohiyati



Namangan — To‘raqo‘rg‘on avtomobil yo‘llari (ko‘k nuqta — loyiha hududi)

≈ 17 km

Namangan shahri markazigacha

≈ 5 km

“Namangan” xalqaro aeroportigacha (to‘g‘ri chiziqda)

2 ta

Hududga kirish: janubiy va shimoliy uchlaridan

Tranzit afzalliklari

- Namangan — To‘raqo‘rg‘on — Chust yo‘li hududni viloyat markazi bilan bog‘laydi
- Aeroport yaqinligi — viloyatga keladigan mehmonlar uchun birinchi dam olish nuqtasi
- Kosonsoy ko‘chasi va soy bo‘yi yo‘li hududga bevosita kirishni ta’minlaydi

** Masofalar xarita bo‘yicha taxminiy o‘lchangan.*

Tahlil

01. Ma’muriy ierarxiya

O‘zbekiston Respublikasi

≈ 38 mln aholi

▼

Namangan viloyati

3 213,6 ming aholi • 7,4 ming km² • 754 mahalla

▼

To‘raqo‘rg‘on tumani

257,5 ming aholi • ≈ 270 km² • 64 mahalla

▼

To‘raqo‘rg‘on shahri (tuman markazi)

Shahar aholisi 149,9 ming (tuman bo‘yicha)

▼

Loyiha hududi — Kosonsoy soyi bo‘yi

≈ 11,9 ga • 2,67 km sohil • 28 lot



Hududning o‘rni

- Loyiha hududi tuman markazining ichida — aholi uchun piyoda yetib boriladigan masofada
- Soyning ikkala qirg‘og‘idagi mahallalar hududdan bevosita foydalanadi
- Qizil chiziq — loyiha chegarasi (KMZ)

Tahlil


01. Ma’muriy chegaralar: tuman → shahar → loyiha hududi

1 To‘raqo‘rg‘on tumani



≈ 270 km², 257,5 ming aholi, 64 mahalla

2 To‘raqo‘rg‘on shahri



Loyiha joyi — Kosonsoy soyi bo‘yi, shahar markazidan shimolda

3 Loyiha hududi



≈ 11,9 ga, uzunligi 2,67 km, o‘rtacha eni ≈ 45 m

Joylashuv xulosasi

- Loyiha hududi tuman markazining ichida, Kosonsoy soyi bo‘ylab shimol–janub yo‘nalishida joylashgan
- Hudud tuman aholisining 58 % i yashaydigan shahar qismiga xizmat qiladi va viloyat markazi bilan tez bog‘langan

Tahlil

01. Demografik holat


257,5 ming
Doimiy aholi (01.07.2026)

58,2 %
Shahar aholisi ulushi

19,7 ‰
Tug‘ilish koeffitsiyenti

15,6 ‰
Tabiiy o‘sish

Aholining yosh tarkibi (01.01.2026)



Ko‘rsatkich	2026-y. yanvar–iyun
Erkaklar / ayollar	130,3 / 127,2 ming
Tug‘ilganlar	2 512 kishi
Vafot etganlar	532 kishi
Kelganlar / ketganlar	225 / 323 kishi
Aholi o‘sishi (yil boshidan)	+1,9 ming kishi
Nikohlar / ajrimlar	561 / 201
O‘zbeklar ulushi (01.01.2024)	99,2 %
0–30 yoshlilar ulushi	37,5 %


Aholining 37,5 % i 30 yoshgacha — yoshlar va oilalar uchun dam olish, sport va ko‘ngilochar xizmatlarga talab yuqori.

Manba: Namangan viloyati statistika boshqarmasi, 2026-yil yanvar–iyun ma’lumotlari.

Tahlil

01. Mehnat balansi va migratsiya

Ko‘rsatkich*	ming kishi
Jami mehnat resurslari	132,5
Iqtisodiy faol aholi	100,1
Jami bandlar	95,3
— rasmiy sektorda	44,6
— norasmiy sektorda	42,9
Ishsizlar	4,8
Mehnat migrantlari	7,9
Iqtisodiy nofaol aholi	32,4



Loyiha uchun ahamiyati

- Norasmiy band yoshlarni xizmat ko‘rsatish sohasiga rasmiy jalb qilish imkoniyati
- Mavsumiy migratsiyani kamaytirish uchun tuman markazida yangi ish o‘rinlari
- Ayollar va yoshlar uchun savdo, ovqatlanish, hunarmandchilikda bandlik

4,8 %
Ishsizlik darajasi (viloyat)

4,7 %
Kambag‘allik darajasi (viloyat)


≈ 45 %
Bandlarning norasmiy sektordagi ulushi

** Tuman passporti kelguncha viloyat mehnat balansi nisbatlari tuman aholisiga (257,5 ming) ko‘paytirilib hisoblangan taxminiy qiymatlar.*

Tahlil

01. Asosiy iqtisodiy koʻrsatkichlar

Koʻrsatkich	mlrd soʻm	oʻsish, %	viloyatdagi ulushi
Sanoat mahsulotlari	3 429,0	105,5	16,9 %
Investitsiyalar	3 313,8	126,8	9,1 %
Qishloq xoʻjaligi	2 028,7	103,9	9,4 %
Chakana savdo aylanmasi	1 039,2	130,3	6,8 %
Jami xizmatlar	1 025,3	118,7	3,3 %
Qurilish ishlari	233,2	109,8	2,8 %



Xulosa

- Aholi jon boshiga sanoat (2,1 barobar) va investitsiya viloyat oʻrtachasidan yuqori — tumanning ishlab chiqarish bazasi kuchli
- Xizmatlar jon boshiga viloyat oʻrtachasining atigi 42 % ini tashkil etadi — xizmat koʻrsatish sohasi eng katta oʻsish zaxirasi

Manba: Namangan viloyati statistika boshqarmasi, 2026-yil yanvar–iyun maʼlumotlari.

01.

Tahlil

Sanoat va sanoat zonalari


3 429,0
mlrd so‘m — sanoat ishlab chiqarish

105,5 %
O‘sish sur’ati

16,9 %
Viloyat sanoatidagi ulushi

303 ta
Faoliyat ko‘rsatayotgan sanoat korxonalari

Sanoat ishlab chiqarish tarkibi, %



Tuman sanoatining xususiyatlari


- Sanoatning 86,8 % i yirik korxonalar hissasiga to‘g‘ri keladi — asosiy korxona: To‘raqo‘rg‘on issiqlik elektr stansiyasi
- Aholi jon boshiga sanoat 13,4 mln so‘m — viloyat o‘rtachasidan 2,1 barobar yuqori
- Mahalliylashtirish dasturi: 4 ta loyiha, 206,2 mlrd so‘m mahsulot, 17,3 mln $ eksport, 150 ta yangi ish o‘rni
- Kichik biznesning sanoatdagi ulushi atigi 13,2 % (viloyatda 51,7 %)
- 20 ta faol qo‘shma korxona, shundan 10 tasi sanoatda

Kuchli sanoat bazasi va daromadli aholi — dam olish va xizmatlar iste’moli uchun tayyor talab mavjud.

Manba: Namangan viloyati statistika boshqarmasi, 2026-yil yanvar–iyun ma’lumotlari.

Tahlil

01. Xizmatlar, savdo va kichik tadbirkorlik



Chakana savdo	mlrd so‘m	ulush
Yirik korxonalar	87,1	8,4 %
Kichik korxonalar	236,2	22,7 %
Yakka tartibdagi tadbirkorlar	455,8	43,9 %
Uyushmagan savdo	260,1	25,0 %
Jami (130,3 %)	**1 039,2**	**100 %**

Kichik tadbirkorlik (01.07.2026)

Faoliyat ko‘rsatayotgan subyektlar	**1 483 ta**
2026-yilda yangi tashkil etilgan	**126 ta**
Yashash va ovqatlanish korxonalari	**93 ta**
Oilaviy korxonalar (faol)	**164 ta**
Kichik biznesning xizmatlardagi ulushi	**75,0 %**
Kichik biznesning savdodagi ulushi	**66,6 %**

Yashash va ovqatlanish xizmatlari — atigi 15,8 mlrd so‘m (1,5 %). Aholi jon boshiga 61,5 ming so‘m, viloyatda — 2 745,9 ming.

Tumanda turizm, dam olish va ovqatlanish infratuzilmasi deyarli shakllanmagan — loyiha aynan shu bo‘shliqni to‘ldiradi.

Manba: Namangan viloyati statistika boshqarmasi, 2026-yil yanvar–iyun ma’lumotlari.

Tahlil

01. Investitsiyalar va qurilish


3 313,8
mlrd so‘m — asosiy kapitalga investitsiya

126,8 %
O‘sish sur’ati

258,8 mln $
Xorijiy investitsiya va kreditlar

42,1 ming m²
Turar joy qurilishi (6 oy)

Moliyalashtirish manbai	mlrd so‘m	ulush
Xorijiy investitsiya va kreditlar	3 132,6	94,5 %
Aholi mablag‘lari	117,0	3,5 %
Respublika byudjeti	49,7	1,5 %
Korxona mablag‘lari	12,2	0,4 %
Bank kreditlari	2,4	0,1 %
Jami	**3 313,8**	**100 %**



Xulosa

- Investitsiyalarning 94,5 % i xorijiy manbalar — yirik energetika va sanoat loyihalariga yo‘naltirilgan
- Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasiga yo‘naltirilgan investitsiyalar deyarli yo‘q — lotlar orqali xususiy kapitalni jalb qilish zarur

Manba: Namangan viloyati statistika boshqarmasi, 2026-yil yanvar–iyun ma’lumotlari.

01.

Tahlil

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi


2 028,7
mlrd so‘m — qishloq xo‘jaligi mahsuloti

103,9 %
O‘sish sur’ati

511 ta
Fermer xo‘jaliklari

7,9 mln
so‘m — aholi jon boshiga (viloyat 6,7)

Asosiy mahsulotlar, tonna (2026-y. yanvar–iyun)



Chorva (01.07.2026)	bosh	o‘sish
Yirik shoxli qoramol	64 261	100,6 %
shundan sigirlar	19 972	100,8 %
Qo‘y va echkilar	63 930	100,4 %
Parrandalar	856 500	105,5 %
Otlar	613	102,0 %

Tuxum	**47,3 mln dona (138,2 %)**
Baliq ovlash	**365,6 t (15,7 barobar)**
Pilla	**229,3 t**
Asal	**6,9 t (113,1 %)**

Meva, uzum va sabzavotchilik — hunarmandlar va ovqatlanish zonasi uchun mahalliy mahsulot bazasi (fermer bozori, milliy taomlar).

Manba: Namangan viloyati statistika boshqarmasi, 2026-yil yanvar–iyun ma’lumotlari.

01.

Tahlil

Tashqi iqtisodiy aloqalar


150,4 mln $
Tashqi savdo aylanmasi (139,0 %)

99,6 mln $
Eksport (129,4 %)

50,8 mln $
Import (162,6 %)

+48,8 mln $
Ijobiy tashqi savdo saldosi

Tashqi savdo, mln AQSh dollari (yanvar–iyun)



Viloyat eksportidagi ulushi	**25,3 %**
Aholi jon boshiga aylanma	**586,1 $ (viloyat 276,5 $)**
Aholi jon boshiga eksport	**388,3 $ (viloyat 122,8 $)**
Qo‘shma korxonalar aylanmasi	**73,5 mln $ (138,9 %)**
Ro‘yxatdagi qo‘shma korxonalar	**25 ta (14 tasi xorijiy)**
Faol qo‘shma korxonalar	**20 ta**

Loyiha uchun ahamiyati

- Tuman viloyat eksportining chorak qismini beradi — xorijiy hamkorlar va ishbilarmonlar tashrifi muntazam
- Biznes-mehmonlar uchun restoran, dam olish va ko‘ngilochar joylarga talab mavjud

Manba: Namangan viloyati statistika boshqarmasi, 2026-yil yanvar–iyun ma’lumotlari.

01.

Tahlil

Moliyaviy faoliyat va ijtimoiy soha

Korxonalarning moliyaviy holati (01.06.2026)

Debitorlik qarzdorligi	**307,2 mlrd so‘m**
Kreditorlik qarzdorligi	**359,7 mlrd so‘m**
Ish haqi bo‘yicha qarzdorlik	**18,5 mlrd so‘m**
Muddati o‘tgan qarzdorlik	**yo‘q**

Tadbirkorlik subyektlari (01.07.2026)

Jami faol subyektlar	**2 280 ta**
Kichik korxona va mikrofirmalar	**1 483 ta**
Yirik tijorat korxonalari	**10 ta**
Fermer xo‘jaliklari	**511 ta**
Boshqalar	**275 ta**

Ijtimoiy obyektlar	soni	sig‘imi / qamrovi
Maktabgacha ta’lim tashkilotlari	47	8 712 bola
Umumta’lim maktablari	66	47 059 o‘quvchi
Texnikumlar	4	2 985 talaba
Kasb-hunar maktablari	2	1 162 talaba
Kollejlar	1	68 talaba
Oliy ta’lim muassasasi	1	2 433 talaba
Tibbiyot muassasalari	43	—
— ambulator-poliklinika	26	—
— shifoxonalar	8	—
— qishloq vrachlik punktlari	9	—

Tumanda 50 mingdan ortiq o‘quvchi va talaba bor, ammo zamonaviy istirohat bog‘i, sport va ko‘ngilochar majmualar yetishmaydi.

Manba: Namangan viloyati statistika boshqarmasi, 2026-yil yanvar–iyun ma’lumotlari.

01. Tahlil

Kommunikatsiya va muhandislik infratuzilmasi

To‘raqo‘rg‘on tumani bo‘yicha muhandislik tarmoqlari passporti ma’lumotlari kutilmoqda. Quyida viloyat ko‘rsatkichlari keltirilgan; tuman qiymatlari rasmiy passport kelishi bilan to‘ldiriladi.

Ichimlik suvi tarmoqlari

8 687,4 km

ta’minlanganlik 88,1 %

Oqova suv tarmoqlari

490,2 km

markazlashgan tizim cheklangan

Elektr tarmoqlari

22 277 km

To‘raqo‘rg‘on IES — viloyat energiya manbai

Tabiiy gaz tarmoqlari

5 207,5 km

ta’minlanganlik 32,4 %

Aloqa tarmoqlari (kabel)

6 775 km

optik tolali aloqa

Avtomobil yo‘llari

14 336 km

viloyat bo‘yicha

Loyiha hududi uchun

- Loyiha hududi shahar markazida joylashgani uchun elektr, suv va aloqa tarmoqlariga ulanish nuqtalari yaqin
- Hudud bo‘ylab tarmoqlar holati va ulanish shartlari (texnik shartlar) keyingi bosqichda aniqlashtiriladi
- Kanalizatsiya cheklangani sababli bio-hojatxonalar va lokal tozalash inshootlari nazarda tutiladi

Manba: Namangan viloyati passporti, 2026-yil II chorak (viloyat bo‘yicha).

01.

Tahlil


Uy-joy fondi va aholi joylashuvi

42,1 ming m²
Turar joy qurilishi (2026-y. 6 oy)

6,0 %
Viloyatdagi ulushi (697,0 ming m²)

81,2 mlrd
Yakka tartibdagi uy-joy qurilishi (116,6 %)

≈ 53,7 ming
Xonadonlar (taxminiy*)



Uy-joy fondining xususiyatlari

- Tuman aholisining 58 % i shaharda — asosan yakka tartibdagi 1–2 qavatli uylar
- Viloyat bo‘yicha bir kishiga 15,1 m² uy-joy to‘g‘ri keladi; hovlili uylarda yashil dam olish joylari cheklangan
- Soy bo‘yiga tutash mahallalar (Yettikon, Toshkent, Yangiobod va boshqalar) uchun hudud eng yaqin jamoat makoni
- Yangi uy-joy qurilishi o‘smoqda (116,6 %) — jamoat infratuzilmasiga ehtiyoj ortadi

Hudud tuman markazining “yashil xonasi” vazifasini bajaradi: ochiq maydonlar, soya, suv bo‘yi va oilaviy dam olish.

** Viloyat bo‘yicha o‘rtacha xonadon hajmi (4,8 kishi) asosida hisoblangan. Manba: Namangan viloyati statistika boshqarmasi, 2026-yil yanvar–iyun ma’lumotlari.*

01.

Tahlil

Tanlangan hudud chegarasi





Sun’iy yo‘ldosh surati — qizil chiziq loyiha chegarasi

Maydoni (KMZ)	**≈ 11,9 ga**
Perimetri	**≈ 5,4 km**
Uzunligi (soy bo‘yi)	**≈ 2,67 km**
Eni	**20–200 m**
Chegara nuqtalari	**22 ta**
Markaz koordinatasi	**41,009° N; 71,505° E**

Hudud soyning chap qirg‘og‘i bo‘ylab tor tasma shaklida cho‘zilgan.

Tahlil

01. Tanlangan hudud va uning atrofi



Loyiha hududi va unga tutash mahallalar (sun’iy yo‘ldosh surati)

Hududga tutash obyektlar

- To‘raqo‘rg‘on shahri markazi va dehqon bozori — janubiy uchida
- Kosonsoy ko‘chasi — hudud bo‘ylab asosiy yo‘l
- Yettikon, Toshkent, Yangiobod mahallalari — sharqiy tomonda
- Maktablar (№ 7, № 50), jome masjidi — 1 km radiusda
- Savdo binolari va “Compass” savdo markazi — qarshi qirg‘oqda
- Charxpalak va istirohat hududi — shimoliy qismda
- Avtomobil yo‘li ko‘prigi — shimoliy uchida

Hudud 10–15 daqiqalik piyoda masofasida shahar aholisining katta qismini qamrab oladi.

Tahlil

01. Loyiha hududi haqida ma’lumot

Umumiy ma’lumot	
Joylashuvi	To‘raqo‘rg‘on shahri, Kosonsoy soyi chap qirg‘og‘i
Maydoni	≈ 11,9 ga (119 161 m²)
Yer toifasi	Soy suvni muhofaza qilish zonasi
Hozirgi foydalanish	Bo‘sh yer, tartibsiz avtoturargoh, tuproq yo‘llar
Mavjud binolar	Vaqtinchalik xizmat binolari (bir nechta)
Ko‘kalamzorlik	Majnuntol va terakzorlar — janubiy va shimoliy qismda
Soy qirg‘og‘i	Beton qoplamali qiyaliklar, naqshli panjara (qisman)

Xizmat ko‘rsatish radiusi*	Aholi
1,5 km — piyoda (15 daqiqa)	≈ 40–50 ming
To‘raqo‘rg‘on tumani	257,5 ming
Namangan shahri (17 km)	734,3 ming
Namangan viloyati	3 213,6 ming



Hozirgi holat: tartibsiz avtoturargoh



Hozirgi holat: foydalanilmayotgan soy o‘zani

** Piyoda radiusdagi aholi soni taxminiy baholangan (shahar aholisi zichligi asosida).*

Tahlil

01. Mavjud tarmoqlar va infratuzilma

1 Yo‘llar

Kosonsoy ko‘chasi va qirg‘oq bo‘yi yo‘li asfaltlangan; ichki qismda tuproq yo‘llar

2 Elektr tarmog‘i

Hudud bo‘ylab elektr uzatish havo liniyalari tayanchlari mavjud

3 Yoritish

Janubiy qismda ko‘cha yoritgichlari bor, shimoliy qism yoritilmagan

4 Suv va kanalizatsiya

Ma’lumot kutilmoqda — texnik shartlar asosida aniqlanadi

5 Soy qirg‘og‘i


Beton qoplamali qiyaliklar; janubda naqshli panjara



Qirg‘oq bo‘yi yo‘li



Elektr tayanchi, bo‘sh maydon



Naqshli panjara, sohil yo‘lagi



Beton qiyaliklar, o‘zan

Muhandislik tarmoqlari bo‘yicha rasmiy ma’lumot (s'yomka, texnik shartlar) kelgach, list yangilanadi.

Tahlil

01. Hududning sunʼiy yoʻldoshdan koʻrinishi




≈ 11,9 ga	≈ 2,67 km	≈ 5,4 km	22 ta
Maydoni	Uzunligi	Perimetri	Chegara nuqtalari

01.

Tahlil

Tayanch reja — hudud chegarasi (KMZ)



№	Kenglik (N)	Uzunlik (E)
1	41,001850	71,505021
2	41,001881	71,505644
3	41,002440	71,506193
4	41,002932	71,506321
5	41,004007	71,506465
6	41,004674	71,506570
7	41,005369	71,506623
8	41,006379	71,506479
9	41,007317	71,506214
10	41,021367	71,503051
11	41,022563	71,502965

№	Kenglik (N)	Uzunlik (E)
12	41,025529	71,502251
13	41,025468	71,501868
14	41,024384	71,501978
15	41,017598	71,503305
16	41,010624	71,504850
17	41,007293	71,505770
18	41,006433	71,505984
19	41,005838	71,506106
20	41,004638	71,506311
21	41,002945	71,505795
22	41,002582	71,505624

Izoh

- Geodezik s'yomka hozircha mavjud emas — tayanch reja KMZ chegara fayli asosida tuzildi
- Koordinatalar WGS-84 tizimida
- Chizma soy oqimi bo‘ylab gorizontal burilgan; shimol yo‘nalishi strelka bilan ko‘rsatilgan
- S'yomka kelgach relyef, mavjud tarmoqlar va binolar bilan yangilanadi

Tahlil

01. Hudud tuzilishi — bosh reja (daraxtsiz ko‘rinish)



Hudud janubdan shimolga qarab funksional zonalarga bo‘linadi

1 — Asosiy kirish zonasi

Savdo markazi va restoran, avtoturargoh, kirish arkasi

2 — Gullar va landshaft zonasi

Gullar bog‘i, favvora, workout, selfi-terrasa

3 — Hunarmandlar va savdo markazi

Ko‘chma savdo, pergolalar, milliy taomlar

4 — Umumiy ovqatlanish zonasi

Restoranlar, glamping-gumbazlar, kafe-terrasalar

5 — Amfiteatr va marosimlar zonasi

785 m² amfiteatr, Marry me foto-zona, san’at xiyoboni

6 — Aqua park — bolalar uchun

Suv o‘yinlari, batut, game club

7 — Faol dam olish zonasi

Climbing, zipline, paintbol, karting

8 — Sport majmuasi va parkur

Mini-futbol, gandbol, tennis, Ninja Warrior

Tahlil

01. Mavjud holat — janubiy (markaziy) qism



Qirgʻoq boʻyi yoʻli, fonda savdo markazi



Tartibsiz avtoturargohga aylangan maydon



Obodonlashtirilmagan maydon, elektr tayanchi



Qoplamasiz boʻsh maydon, majnuntollar

Suratlar 2026-yil 25-avgustda olingan.

Tahlil

01. Mavjud holat — qirgʻoq boʻyi



Qirgʻoq yoʻli, fonda tepalikdagi majmua



Qirgʻoq yoʻli va xizmat binolari



Naqshli panjara, qarshi sohildagi binolar



Soy oʻzani va qarshi sohil

Suratlar 2026-yil 25-avgustda olingan.

Tahlil

01. Mavjud holat — soy oʻzani va shimoliy qism



Naqshli panjara, sohil yoʻlagi



Quruq shagʻalli oʻzan, beton qiyaliklar



Terakzor va tuproq yoʻl



Shagʻalli oʻzan, foydalanilmayotgan qirgʻoq

Suratlar 2026-yil 25-avgustda olingan.

Tahlil

01. Mavjud holat — shimoliy qism va asosiy muammolar



Tekislanmagan bo‘sh hudud, fonda charxpalak



Shimoliy qism — qoplamasiz yer

Asosiy muammolar

1

Obodonlashtirilmagan

Qoplama, yoritish va ko‘kalamzorlashtirish yo‘q

2

Tartibsiz avtoturargoh

Maydonlar mashinalar bilan band

3

Soya va dam olish joyi yo‘q

O‘rindiq, soyabon, hojatxona mavjud emas

4

Soy o‘zanidan foydalanilmaydi

Suv bo‘yi aholi uchun yopiq va jozibasiz

Tahlil

01. Muhokama: tashkilotlar va aholi bilan



Konsepsiyani joyida muhokama qilish



Tuman hokimligida konsepsiya muhokamasi

Muhokama natijalari

- Konsepsiya chizmasi tuman hokimligi mutaxassislari bilan joyida va idorada ko‘rib chiqildi
- Takliflar: avtoturargohlarni hududning ikki uchiga chiqarish, soy bo‘yi bo‘ylab uzluksiz piyoda yo‘lagi, oilaviy va bolalar zonalariga ustuvorlik
- Kelishuv: barcha binolar 1 qavatli yengil konstruksiyada, soy himoya zonasi talablariga rioya qilinadi

Tahlil

01. Tahlil xulosalari

Kuchli iqtisodiy baza

Jon boshiga sanoat va investitsiya viloyat oʻrtachasidan yuqori; eksportda 25,3 % ulush

Xizmatlar ortda qolgan

Xizmatlar jon boshiga viloyatning 42 % i; yashash va ovqatlanish — atigi 1,5 %

Yosh aholi

30 yoshgacha boʻlganlar — 37,5 %; yiliga 5 mingga yaqin tugʻilish

Qulay joylashuv

Namangandan 17 km, aeroportdan ≈ 5 km; shahar markazida

Foydalanilmayotgan resurs

2,67 km soy boʻyi — boʻsh yer va tartibsiz avtoturargoh

Bandlik ehtiyoji

Norasmiy bandlik ≈ 45 %; yangi rasmiy ish oʻrinlari kerak

Xulosa: Kosonsoy soyi boʻyini turizm va servis klasteriga aylantirish tumanning eng zaif sohasi — xizmatlarni rivojlantiradi, yoshlar uchun ish oʻrni va aholi uchun sifatli dam olish muhitini yaratadi.

Tahlil

01. SWOT-tahlil

S — Kuchli tomonlar

- Shahar markazida, 2,67 km soy boʻyi
- Namangan va aeroportga yaqinlik
- Kuchli sanoat bazasi, daromadli aholi
- Yosh va koʻp sonli aholi
- Tayyor konsepsiya va 3D vizualizatsiya

W — Zaif tomonlar

- Hudud tor (oʻrtacha eni ≈ 45 m)
- Muhandislik tarmoqlari maʼlumoti yoʻq
- Soy himoya zonasi — qurilish cheklovlari
- Xizmatlar va turizm tajribasi kam
- Mavjud tartibsiz avtoturargohlar

O — Imkoniyatlar

- PQ-245, PQ-298, PF-102 davlat qoʻllovi
- 28 lot orqali xususiy investitsiya
- Oilaviy va mintaqaviy turizm oqimi
- Yangi ish oʻrinlari (ayollar, yoshlar)
- Tadbirlar, festivallar, yarmarkalar

T — Xavflar

- Soy toshqini va mavsumiy suv oqimi
- Investorlar faolligining pastligi
- Yozgi mavsumga bogʻliqlik
- Qurilish narxlarining oshishi
- Parvarish va boshqaruv sifatining pasayishi



02.

Iqtisodiy rivojlantirish salohiyati

Tuman iqtisodiyotining drayverlari, talab va resurslar, bandlik va investitsiya mexanizmlari

1. Mavjud va yangi iqtisodiy drayverlar
2. Salohiyat, resurslar va tashrif buyuruvchilar oqimi
3. Bandlik, aholi ehtiyojlari va me’yoriy talab
4. Iqtisodiy konsepsiya, savdo va mahalliy mahsulot
5. Investitsiya mexanizmlari va kutilayotgan samara

02.

Iqtisodiy rivojlantirish salohiyati

Tuman iqtisodiyotining mavjud drayverlari

Energetika va sanoat

- To‘raqo‘rg‘on IES — viloyatning asosiy energiya manbai
- Sanoat 3 429,0 mlrd so‘m, viloyatda 16,9 %
- Jon boshiga sanoat — viloyatdan 2,1 barobar yuqori

Qishloq xo‘jaligi

- 2 028,7 mlrd so‘m, 511 fermer xo‘jaligi
- Uzumchilik (195) va bog‘dorchilik (183) fermerlari
- Sabzavot 59,9 ming t, meva 18,2 ming t

Eksport

- Tashqi savdo 150,4 mln $ (139,0 %)
- Eksport 99,6 mln $ — viloyatning 25,3 %
- 20 ta faol qo‘shma korxona

Joylashuv va aholi

- Namangandan 17 km, aeroportdan ≈ 5 km
- 257,5 ming aholi, 37,5 % i 30 yoshgacha
- Shahar aholisi — 58,2 %

Xulosa

- Tumanda daromad keltiruvchi ishlab chiqarish kuchli, ammo xizmatlar va dam olish sektori zaif
- Mavjud drayverlar aholining xarid qobiliyatini oshiradi — bu yangi xizmatlarga talab yaratadi
- Soy bo‘yi loyihasi iqtisodiyotni “ishlab chiqarish → iste’mol va xizmatlar” tomon muvozanatlaydi



Kosonsoy soyi bo‘yi — umumiy ko‘rinish

Manba: Namangan viloyati statistika boshqarmasi, 2026-yil yanvar–iyun ma’lumotlari.

02.

Iqtisodiy rivojlantirish salohiyati

Loyiha yaratadigan yangi drayverlar

1

Ichki va mintaqaviy turizm

Namangan, Chust, Kosonsoy aholisi uchun dam olish manzili; aeroport orqali kelgan mehmonlar

2

Umumiy ovqatlanish (HoReCa)

Restoranlar, milliy taomlar, kafe-terrasalar, glamping-gumbazlar — 8 ta lot

3

Hunarmandchilik va savdo

Mahalliy hunarmandlar rastalari, yarmarkalar, sovg‘alar — 6 ta lot

4

Faol dam olish va sport

Karting, zipline, paintbol, parkur, universal sport maydonlari — 8 ta lot

5

Tadbirlar va marosimlar

785 m² amfiteatr, “Marry me” foto-zona — to‘y, festival, konsertlar

6

Yashil transport

Elektromobil zaryadlash stansiyalari, velosiped-samokat ijarasi



Umumiy ovqatlanish zonasi



Faol dam olish — karting

02.

Iqtisodiy rivojlantirish salohiyati

Hududning salohiyati va resurslari

≈ 11,9 ga
Obodonlashtiriladigan hudud

28 ta
Investitsiya loti — 86 838,8 m²

2,67 km
Soy bo‘yi sohili

1 483 ta
Tumandagi faol kichik korxonalar

Yer resursi

- Hududning 72,9 % i lotlarga ajratilgan
- Qolgan qism — jamoat yo‘laklari, ko‘kalamzorlar, ko‘priklar
- Barcha binolar 1 qavatli — jami ≈ 6 229 m²

Tabiiy resurs

- Kosonsoy soyi — suv bo‘yi manzarasi
- Majnuntol va terakzorlar saqlanadi
- Mikroiqlim: yozda soya va salqinlik

Inson resursi

- Iqtisodiy faol aholi ≈ 100 ming
- Norasmiy bandlar ≈ 43 ming
- Kollej va texnikumlar — 4 ming talaba

Tadbirkorlik resursi

- 93 ta yashash va ovqatlanish korxonasi
- 164 ta oilaviy korxona
- 126 ta yangi korxona (2026-y. 6 oy)

Salohiyat xulosasi

- Hudud shahar markazida, tayyor yo‘l tarmog‘i yonida — infratuzilma xarajatlari past
- Tumanda xizmatlar sohasida faol tadbirkorlar bazasi mavjud — lotlarga talab bo‘ladi
- Davlat qarorlari (PQ-245, PQ-298, PF-102) bo‘sh yerlarni investitsiyaga yo‘naltirishni qo‘llab-quvvatlaydi

02.

Iqtisodiy rivojlantirish salohiyati

Tashrif buyuruvchilar oqimi prognozi


≈ 900 ming
Yillik tashriflar (to‘liq ishga tushgach)

≈ 2 500
Kunlik o‘rtacha tashrif

≈ 10 000
Bayram va dam olish kunlari cho‘qqisi

45 ming so‘m
Bir tashrifdagi o‘rtacha sarf

Oylar bo‘yicha tashriflar, ming (mavsumiylik)



Tashrif manbai	Aholi	ulush
To‘raqo‘rg‘on shahri va tumani	257,5 ming	55 %
Namangan shahri (17 km)	734,3 ming	30 %
Chust, Kosonsoy, Pop tumanlari	—	10 %
Viloyatdan tashqari mehmonlar	—	5 %

Hisoblash asosi

- Tuman aholisi yiliga o‘rtacha 2 marta tashrif buyuradi
- Namangan aholisining ≈ 35 % i yiliga 1 marta
- Yozgi mavsum (may–sentyabr) — yillik oqimning 57 % i

** Prognoz shunga o‘xshash shahar sohil bo‘yi parklari tajribasi asosida taxminiy baholangan; loyiha to‘liq ishga tushgandan keyingi yil uchun.*

02.

Iqtisodiy rivojlantirish salohiyati


Mehnat resurslari va yangi ish o‘rinlari

≈ 266
Doimiy ish o‘rinlari (lotlarda)

≈ 30
Hudud boshqaruvi va parvarishi

≈ 150
Mavsumiy ish o‘rinlari (yoz)

≈ 350
Qurilish davrida band bo‘ladiganlar



Kimlar ishga jalb qilinadi


- Oshpaz, ofitsiant, barista — ovqatlanish zonasi (≈ 45 %)
- Sotuvchi va hunarmandlar — savdo rastalari
- Instruktor, animator, qutqaruvchi — aquapark va faol dam olish
- Qo‘riqchi, bog‘bon, texnik xodim — hudud xizmati
- Tadbir tashkilotchilari, fotograflar — amfiteatr va foto-zonalar

Ish o‘rinlarining 60 % idan ortig‘i yoshlar va ayollar uchun mos — tumandagi norasmiy bandlikni kamaytiradi.

** Ish o‘rinlari lotlar funksiyasi va maydoni bo‘yicha me’yoriy ko‘rsatkichlar asosida hisoblangan.*

Iqtisodiy rivojlantirish salohiyati

02. Aholi ehtiyojlari va talab



Oilaviy dam olish joyi

Shahar markazida soya, suv va o‘rindiqli xavfsiz park yo‘q

Bolalar uchun o‘yin va suv maydoni

0–18 yoshlilar — 95,8 ming (37 %)

Kafe va restoranlar

Yashash va ovqatlanish xizmatlari — atigi 1,5 %

Sport va faol dam olish

Yoshlar uchun zamonaviy sport maydonlari kam

To‘y va tadbirlar uchun joy

Ochiq tadbir maydoni, foto-zona talab qilinadi

Avtoturargoh

Markazdagi tartibsiz turargohlarni tartibga solish

Xulosa


- Aholi eng ko‘p oilaviy dam olish, bolalar uchun maydon va ovqatlanish joyini so‘ramoqda
- Loyiha 11 ta zona orqali barcha 6 ta ehtiyojni bitta hududda qondiradi

** Ahamiyat darajasi tuman hokimligi va aholi bilan o‘tkazilgan muhokamalar asosida ekspert tomonidan baholangan.*

Iqtisodiy rivojlantirish salohiyati

Me’yoriy ehtiyoj va loyiha qamrovi

Obyekt turi	Me’yor*	Ehtiyoj (149,9 ming aholi)	Loyiha beradi
Umumiy foydalanishdagi ko‘kalamzor	6 m²/kishi	≈ 90 ga	≈ 3,5 ga
Umumiy ovqatlanish	40 o‘rin/1000 kishi	≈ 6 000 o‘rin	≈ 1 400 o‘rin
Savdo maydoni	280 m²/1000 kishi	≈ 42 000 m²	≈ 1 100 m²
Sport maydonlari	0,7 ga/1000 kishi	≈ 105 ga	≈ 0,9 ga
Bolalar o‘yin maydonchalari	0,5 m²/kishi	≈ 7,5 ga	≈ 1,3 ga
Avtoturargoh (rekreatsiya)	10 joy/100 tashrif	≈ 250 joy (cho‘qqi)	≈ 300 joy



Xulosa

- Loyiha shahar markazidagi ovqatlanish va bolalar maydonchalari ehtiyojining 1/5 qismini yopadi
- Ko‘kalamzor va sport bo‘yicha me’yordan katta tanqislik saqlanadi — keyingi loyihalar zarur
- Avtoturargoh cho‘qqi yuklamani to‘liq qoplaydi

** Me’yorlar ShNQ 2.07.01-19 va amaliyotdagi tavsiyaviy ko‘rsatkichlar asosida taxminiy olingan; loyiha qiymatlari bosh reja bo‘yicha hisoblangan.*

Iqtisodiy rivojlantirish salohiyati

Iqtisodiy konsepsiya — “Besh sohil”



Yashil sohil

Gullar bog‘i, landshaft, piknik, salomatlik yo‘lagi

Gullar bog‘i · Landshaft · Piknik · Salomatlik

Lot 4, 5, 20



Mazali sohil

Restoranlar, milliy taomlar, kafe-terrasalar

Restoran · Milliy taom · Kafe · Terrasa

Lot 1, 10–13, 15



Hunarmand sohil

Rastalar, yarmarkalar, sovg‘alar, gul do‘koni

Rastalar · Yarmarka · Sovg‘alar · Gul do‘koni

Lot 6–9, 21



Oilaviy sohil

Aquapark, batut, game club, bolalar maydonlari

Aquapark · Batut · Game club · Bolalar maydoni

Lot 17–19



Faol sohil

Karting, zipline, paintbol, parkur, sport

Karting · Zipline · Paintbol · Parkur va sport

Lot 22–27

Konsepsiya g‘oyasi

Beshta sohil bir-birini to‘ldiradi: mehmon hududda 3–4 soat qolib, bir necha xizmatdan foydalanadi — bu har bir lotning daromadini oshiradi va hududni yil bo‘yi jonli saqlaydi.

3–4 soat
Hududda qolish

Bir nechta xizmat
Sohillar uyg‘unligi

Daromad o‘sishi
Har bir lot uchun


Yil bo‘yi faol
Doimiy jonli hudud

02.

Iqtisodiy rivojlantirish salohiyati

Zonalar bo‘yicha savdo, xizmatlar va ish o‘rinlari

Zona	Lotlar	Maydoni, m²	Investitsiya, mlrd so‘m	Ish o‘rni
Asosiy kirish	1	5 548,0	16,1	45
Gullar va landshaft	4, 5	6 210,0	4,4	14
Hunarmandlar va savdo	6, 7, 8, 9, 10	6 946,3	6,9	36
Umumiy ovqatlanish	11, 12, 13, 15	10 894,5	8,2	43
Amfiteatr va marosimlar	14, 16	8 847,1	10,9	18
Aqua park va bolalar	17, 18, 19	12 994,6	17,4	44
Faol dam olish	20, 21, 22, 23, 24	18 576,6	18,8	38
Sport majmuasi	25, 26, 27	9 314,3	7,8	16
Avtoturargohlar	2, 3, 28	7 507,4	6,2	12
Jami	**28 ta lot**	**86 838,8**	**96,7**	**266**



Xulosa

- Eng yirik investitsiya — faol dam olish (karting, zipline), aqua park va asosiy kirish majmuasi
- Eng ko‘p ish o‘rni — ovqatlanish, kirish majmuasi va aqua park zonalarida

Iqtisodiy rivojlantirish salohiyati

02. Mahalliy mahsulot va qishloq xo‘jaligi bilan bog‘liqlik

Fermer va tomorqa

Meva, uzum, sabzavot, sut, go‘sht — tumanning 511 fermer xo‘jaligi va dehqonlar

Qayta ishlash

Sharbat, murabbo, quritilgan meva, non va shirinliklar — oilaviy korxonalar

Sohil bo‘yidagi savdo

Fermer yarmarkalari, hunarmand rastalari, milliy taomlar

Mehmon

Mahalliy mahsulotni tatib ko‘radi va sotib oladi



Hunarmandlar markazi — pavilonlar

Imkoniyatlar

- Haftalik fermer yarmarkasi — 20–30 ta savdo joyi (Lot 20 piknik zonasi)
- Milliy taomlar (Lot 10) mahalliy go‘sht, sabzavot va non bilan ishlaydi
- Uzum va meva mavsumida “Hosil bayrami” festivali — amfiteatrda
- Hunarmand rastalarida mahalliy kulolchilik, do‘ppi, zardo‘zlik mahsulotlari
- Baliqchilik o‘sishi (365,6 t) — baliq taomlari uchun mahalliy manba

Iqtisodiy rivojlantirish salohiyati

Investitsiya mexanizmlari

144,7 mlrd
Jami investitsiya (taxminiy)

48,0 mlrd
Davlat — infratuzilma (33 %)

96,7 mlrd
Xususiy — 28 ta lot (67 %)

1 : 2
Davlat va xususiy mablag‘ nisbati

1 E-auksion
Lotlar “E-IJRO AUKSION” orqali qurilish sharti bilan sotiladi yoki uzoq muddatli ijaraga beriladi


2 Davlat byudjeti
Ko‘priklar, yo‘laklar, tarmoqlar, yoritish — viloyat va tuman byudjeti, Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi

3 Davlat-xususiy sheriklik
Aqua park, karting, avtoturargohlarni boshqarish — DXSh shartnomasi asosida

4 Tadbirkorlik kreditlari
Oilaviy tadbirkorlik va yoshlar dasturlari — kichik savdo va kafe lotlari uchun

5 Auksion tushumi qayta investitsiya
Lotlar sotuvidan tushgan mablag‘ hudud parvarishi va rivojiga yo‘naltiriladi

Moliyalashtirish manbalari



